

MILLIY ASARLAR TARJIMASINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI ABDULLA QODIRIY HAMDA ABDULLA QAXXOR ASARLARIDA YORITIB BERILISHI

Hojaliyev Ismail Tajibayevich

FarDU filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A'zamova Gulasal, Ph.D

FarDU Gumanitar yo'nalish bo'yicha chet tillari kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: tarjima, til, adekvat, ayniyat, kognitiv, freym, leksik-semantik, and lisoniy-kognitivlik.

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy asarlar tarjimasining lingvokognitiv xususiyatlari Abdulla Qodiriy hamda Abdulla Qaxxor asarlarida yoritib berilishi bayon etildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

«Kognitiv tilshunoslik (lot. cognitio - bilim) Til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini til va ong munosabatini, olamni konseptualashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o'zni kabi masalalarni tadqiq etuvchi soha» hisoblanadi. U til va tafakkur munosabatlarini o'rganadi.

Sh.Safarov bu borada fikr yuritib, kognitiv tilshunoslikning vazifasini «bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdan iborat» deb qaraydi. Inson o'z hayoti davomida borliqqa, voqelikka, o'zga insonlarga o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat yashirin yoki ochiq – nutqiy muloqot shaklida bo'lishi mumkin. Insonning har bir munosabatida uning kognitiv faoliyati yotadi. Kognitiv faoliyat insonning tafakkur tarzi, ruhiy olami, hatto, aytish mumkinki, jismoniy va fiziologik holati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, bemorning tafakkur tarzi sog'lom odamning tafakkur tarzidan farq qiladi. Fikrlash jarayonidagi holati uning tafakkuridagi mavjud konseptlarga bo'lgan munosabatida ham o'z aksini topadi. Freym strukturadagi mavjud semantik struktura ham o'ziga xos tarzda faollashadi. Bularning bari uning nutqida o'z ifodasini topadi. Nutq ifodasining ravon yoki tushunarsiz bo'lishi, izchil yoki tartibsiz bo'lishi uning nutqiy qobiliyati bilan bog'liq bo'ladi. Chunki insonning bilish, anglash, idrok qilish faoliyati uning sezish, his etish va anglashi bilan boshlanadi. Bu faoliyat nutqda ifodalanganda, birinchi galda, leksik-semantik sathdagi ko'rinadi. Bu esa tilning ijtimoiy kognitiv qurilma sifatida namoyon qiladi. Til birliklari esa o'z navbatida kognitiv birlik sifatida ma'lum axborotni qabul qiladi, ongda konsept struktura asosida qayta ishlaydi, umumlashtiradi. Shu ma'noda til kodlash, dekodlash, qayta ishlash, uzatish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hisoblanadi.

Tarjima amaliyotida kam uchrasada, ba'zida tarjimonning asliyatidagi gap tuzilishiga etarlicha e'tibor

bermasligi tufayli, asar mazmunining noto'g'ri talqin qilinishi hollari ham uchrab turadi. Xullas, tarjima qilinayotgan asar shakli va mazmuni tarjimonlar tomonidan etarlicha chuqur his etilsagina, uni tarjimada qayta yaratish mumkin. Zero, har qanday asar fazilatlarini, undagi uslubiy vositalar vazifasini tarjima matnida tiklash uchun milliy asarlarimiz zaxirasi etarlicha so'z shakllariga ega. Sintaktik vositalar tarjimada hamma vaqt ham xuddi asliyatdagi kabi berilmasada, mohir tarjimonlar ularning matndagi vazifasini boshqa vositalar yordamida qayta tiklash imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Bu esa asarni tarjima tili o'quvchisiga asliyatga mutanosib holda yaxlit etkazib berish uchun o'ta muhim hisoblanadi. Ayniqsa, she'riy tarjima murakkab ijodiy jarayonidir o'z ichiga qamrab oladigan hodisa. Bu murakkablik, ayniqsa, she'riy asarlar tarjimasida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham mazkur soha vakilari haqli ravishda shoir-tarjimon deb aytiladi. Bunda tarjimon-chizmakash emas, biroq rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, yashirin ma'nolarini mufassal bayon qilish yo'llari orqali muallif fikrini kitobxonga aniqroq etkazishga intiladi. Ammo she'rdagi ohang va lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish tarjimondan shoirona ilhom va ulkan mahoratni talab qiladi. She'riy tarjima ham she'rga ilhom kelganidek tarjimonga kuchli ta'sir ko'rsatgandagina yuz beradi. Lisoniy-kognitivlik she'riy tarjimada o'zgacha tarzda kechadi. Chunki kognitiv jarayon milliy-mental, hissiy-ruhiy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ana shu omillar e'tiborga olinsa, tarjima asliyat bilan mazmunan mos kelishi mumkin, ammo she'rning ruhini o'zga tilga o'chira bera olish o'ta murakkab kognitiv jarayon sanaladi. Masalan:

Ko'zlarim yo'l ustida, kelmadi yor,

Ushbu keng dunyo ko'zimga bo'ldi tor.

Qay qaroqchi oldi yorimning yo'lin,

Mundagi baxtsiz yigit yo'l uzra zor...

(Abdulla Qodiriy, «O'tkan kunlar», 276-bet)

Али затянул песню:

Глаза устремлены на полную дорогу

О, милая, скорей приди, расчет тревогу

Какой разбойник преградил твой путь?

О новой встрече здесь молюсь я богу.

(Abdulla Qodiriy. «Минувшие дни», С. 315)

Ma'lumki, milliy asarlar tarjimasida milliy kognitiv xususiyatlar bizga noma'lum bo'lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, kognitiv xususiyatni saqlagan holda eng maqbul usullardan foydalanib tarjima qilishda tarjimon asar muallifi mansub bo'lgan xalqning milliy-mental, lingvokulturologik xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur bo'ladi. O'zbek tilida uchragan so'zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo'lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon asarni o'z kognitiv prizmasidan o'tkazadi va mazmunni saqlangan holda qayta shakllantiradi. Masalan:

Saida ertasiga ham Qalandarovni ko'rolmay kuni bo'yi diqqat bo'lib yurdi-yu, kechqurun birpas yozilib kelgani ko'k toyni minib, "Sotsializm"ga qarab ketdi. U toyini o'ziga rom qilib va o'zini otga o'rgatib yurgan vaqtlarida "Sotsializm"ga bir necha martaba borgan, Tojixonni bir-ikki ko'rib chaqchaqlashgan, lekin uning uyiga kirgani fursat bo'lmay har safar: "Bir kelaman, bafurja o'tirib bir chaqchaqlashamiz", — degan va'da bilan xayrlashgan edi. Diqqatchilikni yozishdan tashqari va'daga vafo qilish uchun ham borish zarur bo'lib qoldi.

Tojixon kasaldan tuzalgan, lekin hali ishga chiqmagan ekan. Saidaning kelganidan juda xursand bo'ldi, minnatdorlik bildirgani so'z, o'tqazgani joy topolmay qoldi.

(Abdulla Qaxxor, «Sinchalak», 163-164 b.)

После обеда Саида решила дать себе маленький отдых и, попросив у конюха все того же вороного жеребца, поехала в «Социализм» навестить Таджихон, которая не раз усиленно приглашала ее к себе. Это казалось ей тем более уместным, что Таджихон, по слухам, болела.

Оказалось, что Таджихон уже поправилась и завтра собиралась выйти на работу: приезд Саиды обрадовал ее она не знала, как принять и куда посадить гостью.

(Abdulla Qaxxor. «Птичка-невиличка», с. 182)

Tarjimon bu matnni qayta yaratgan bo‘lib, «*Bir kelaman, bafurja o‘tirib bir chaqchaqlashamiz*» iborasi tushurib qoldirilgan. Chunki bu o‘zbek ayollariga xos ibora bo‘lib, milliy-mental xususiyat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun mental kognitiv jarayonda o‘zga millat vakili uchun anglab etishda qiyinchilikni yuzaga keltirgan. Buning ta‘sirida tarjimon bu jumlaning to‘lalgicha matndan tushurib qoldirgan. O‘zbek ayollari nutqida ko‘p qo‘llanadigan bu konsept matnning konseptosferasini yuzaga keltiradi. Agar bu jumla rus tili versiyaga so‘zma-so‘z o‘chirilsa, bu o‘rinsiz va noto‘g‘ri fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саломов Г. Адабий анъана ва бадиий таржима. - Тошкент: Фан, 1980.
2. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – ИМО, 1974.
3. Азнаурова Э.С. Очерки по стилистике слова. - Ташкент: Фан, 1973.
4. Azamova G.S., Khojaliyev I.T. The concept of equivalence in translation and its interpretations. SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY 2022.
5. A'zamova G. NATIONAL-CULTURAL NOTIONS AND THEIR COMBINATION IN ENGLISH AND UZBEK WORKS. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1599/1492>
6. Hojaliyev, A'zamova G. Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
7. A'zamova G. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF COGNITIVE CONCEPT IN LINGUISTICS.
8. Г. Азамова. УЛУЧШЕНИЕ УСТНОЙ ПРАКТИКИ